



Xalqaro baholash dasturi asosida matn o'qish texnologiyasini oshirish usullari

Norkulova Jasmina Sodikovna –
Samarqand davlat pedagogika institute
Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi
E-mail: jnorqulova07@gmail.com

Annotatsiya. O'quvchilarning o'qish savodxonligini baholashda xalqaro tajribalar tahlil qilinib, ularni mahalliy ta'lim tizimiga moslashtirish yo'llari ko'rib chiqilgan. Shu bilan birga, matnni tushunishga oid kompetensiyalarni shakllantirishda samarali bo'lgan metodik yondashuvlar, o'qish topshiriqlari turlari, savol-javob texnologiyalari hamda integrativ yondashuv asosida tuzilgan mashg'ulotlar namunalari keltirilgan. Ish natijasida boshlang'ich sinf o'quvchilarining matn bilan ishlash ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga xizmat qiluvchi mexanizmlar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: PIRLS, boshlang'ich sinf, o'qish savodxonligi, matnni tushunish, baholash mezonlari, metodik yondashuv, o'quv topshiriqlari, integrativ ta'lim, kompetensiyalar.

Методы совершенствования технологии чтения текста на основе международной программы оценивания

Аннотация. В исследовании проанализирован международный опыт оценки читательской грамотности учащихся и определены пути его адаптации к национальной системе образования. Кроме того, представлены эффективные методические подходы к формированию компетенций в области понимания текста, типы заданий по чтению, технологии вопросов и ответов, а также примеры занятий, построенных на интегративном подходе. В результате разработаны механизмы поэтапного развития у учащихся начальных классов умений работы с текстом.

Ключевые слова: PIRLS, начальные классы, читательская грамотность, понимание текста, критерии оценки, методический подход, учебные задания, интегративное обучение, компетенции.

Methods for improving text reading technology based on an international assessment program

Annotation. The research analyzes international experiences in assessing students' reading literacy and explores ways to adapt them to the local education system. Additionally, the study presents effective methodological approaches to developing text

comprehension competencies, various types of reading tasks, question-and-answer strategies, and lesson samples designed using an integrative approach. As a result, mechanisms were developed to gradually improve students' abilities to work with texts.

Keywords: *PIRLS, primary school, reading literacy, text comprehension, assessment criteria, methodological approach, learning tasks, integrative education, competencies.*

KIRISH

O'qish savodxonligi – shaxs o'quvchilarning bilim va salohiyatini rivojlantirish, jamiyatda o'z o'rnini topish maqsadiga erishishi yo'lida matnlarni tushunish, ulardan foydalanish, matn ustida mulohaza yuritish hamda ularga munosabat bildirish qobiliyati demakdir. O'qish savodxonligining quyidagi ta'rifida uning har bir qismiga alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, PIRLSdagi dalillar va boshqa amaliy tadqiqotlardan foydalangan holda ba'zi muhim o'zgartirishlar kiritildi va puxta ishlab chiqildi. Bu nazariyadagi o'zgarishlar va dunyoda bo'layotgan o'zgarishlarni inobatga olib amalga oshirildi. O'qish savodxonligining oldingi ta'riflarga qaraganda farqini solishtirar ekanmiz, "O'qish" atamasi o'rnida "O'qish savodxonligi" atamasi foydalanilganligini ko'rish mumkin, chunki ushbu jumla mazkur dasturning tadqiqot doirasi, o'rganish obyektlari haqida, hattoki ayni fan mutaxassisi bo'lmaganlarga ham aniqroq tasavvurlarga ega bo'lishga yordam beradi. O'qish savodxonligi bir qator aqliy faoliyat va til kompetensiyalarini qamrab oladi. Jumladan, alohida olingan so'zning ma'nosini tushunishdan tortib, matnning grammatik va lingvistik qurilishini anglash hamda matndan olingan ma'noni o'zining olam haqidagi tasavvurlari bilan bog'lashni o'z ichiga oladi. U metakognitiv kompetensiyalarni, ya'ni matn bilan ishlashda kerak bo'ladigan turli strategiyalarni bilish va ularni to'g'ri qo'llay olishni ham o'z ichiga oladi. Metakognitiv kompetensiyalar o'quvchi fikrlaganda, kuzatganda va o'zining o'qish mashg'ulotini ma'lum maqsadga yo'naltirganda faollashadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Garchi "savodxonlik" atamasi biror shaxsning o'rganish, foydalanish, yozilgan va nashr etilgan ma'lumotni yetkazish kabi salohiyati bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, bu atama, odatda, shaxsning ma'lum bir fan yoki sohaga oid bilimini anglatadi. Mazkur ta'rif "O'qish savodxonligi" atamasini yoritib berish uchun mo'ljallangan bo'lib, ko'plab vaziyatlarda va turli maqsadlar uchun o'qishning faol, maqsadli va qulay shaklini ifodalash fikriga mos keladi.

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarga yozish, chizish, to'rt amal yordamida hisoblash va ularni amalga oshirishning qonun-qoidalari hamda mustaqil bilim olishni o'rgatadi. Taniqli olim, professor B.Ziyomuxammedov ta'kidlaganidek, pedagogikaning asosiy qonunlaridan biri berilayotgan bilimga qiziqtirish yo'li bilan o'quvchilar diqqatini darsga jalb etish hisoblanadi.[1]

O'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirishni PIRLS baholash dasturi talablari asosida tashkil etish muhim jarayondir. O'qish savodxonligini oshirish jarayonini faollashtirish, o'quvchilarda mustaqil ta'lim olishga bo'lgan intilish, mavzuga oid ma'lumotlarni mustaqil tarzda o'qib o'rganish, savodxonlik darajasi, ko'nikma va malakalarini shakllantirish ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash me'zoni bo'lib, u o'quvchilarda quyidagi xususiyatlarning shakllanishiga asos bo'ladi:[2]

- o'quvchilarda o'qish va yozuv savodxonlik darajasini namoyon qilish;
- bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish;
- ularning o'qitiladigan fanlarga oid bilimlarini rejalashtirish;
- sinfda va sinfdan tashqarida olingan bilimlarni tartibga solish,
- qilish uchun ongli ravishda foydalana bilish;
- ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish.

PIRLS baholash dasturi o'quvchining savodxonlik darajalarini baholab, solishtirib boradi. O'quvchining savodxonlik darajasi bevosita o'qish ko'nikmalariga bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonida o'quvchilarning kitob o'qish va uni tushunish malakalarini shakllantirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

PIRLS baholash dasturida o'quvchilarning o'qish va tushunish darajasini baholashda axborot va badiiy mazmundagi matnlar taqdim etiladi. PIRLS baholash dasturida matnlar uchun quyidagi mezonlar belgilangan: matn hajmi: 1000 ta so'zgacha bo'ladi, o'qish savodxonligi darajasi past bo'lgan mamlakatlar uchun 400-500 ta so'z, matn mavzusi adabiy matnlar asosiy mavzuga ega bo'lib, u berilgan matndan tashqari o'quvchi tomonidan umumlashtiriladi. Axborotdan iborat bo'lgan matnlar o'quv materiallaridan olinmagan mavzuni yoritib berishi kerak. Til: matn 40 dan ortiq tillarga tarjima qilinadi, tarjima qulay va tushunarli bo'lishi talab etiladi. Metafora yoki epitet kabi aniq ifodali tasvirlash so'zlari tanlanadi. Hech qanday so'zlashuvga oid leksika yoki jargon ishlatilmaydi. Matn mazmuni 9-10 yoshdagi o'quvchilarning yosh xususiyatlariga mos kelishi kerak. Ayrim madaniyatlarga juda xos bo'lgan mavzulardan chetlaniladi. Matn shu yoshdagi maktab o'quvchilari uchun qiziqarli bo'lishi kerak, bog'liqlik va ketma-ketlik: syujetning mantiqiy tuzulishiga rioya qilish muhimdir. Oddiy va murakkab gaplarning bir xil ishlatilishi. Agar dialog ustunlik qilsa, ma'lumotni birlashtirib, murakkab gaplarni qo'shish kerak. Axborot matnda matnning strukturasi va ma'lumotning mantiqiy ketma-ketligini sarlavhalar, jadvallar, grafiklar kabi vizual elementlar bilan bog'liqligini kuzatish shartdir.

PIRLS baholash dasturi uchun o'qish savodxonligi jamiyat talab qiladigan yoki shaxs tomonidan qadrlanadigan yozma til shakllarini tushunish va ishlatish qobiliyati sifatida belgilanadi. Yosh o'quvchilar turli xil matnlardan ma'no tuzishlari mumkin. Ular o'qish uchun, maktabda va kundalik hayotda o'quvchilar jamoalarida ishtirok etish uchun o'qishadi.[3]

PIRLS baholash dasturi o'quvchilar o'qish savodxonligining uch jihatiga e'tibor qaratiladi:

- o'qish maqsadlari;
- tushunish jarayonlari;
- o'qish va munosabat.
- Tushunish jarayonining to'rt turi PIRLS baholash dasturida baholanadi:
- aniq bayon qilingan ma'lumotlarga e'tibor qaratish;
- to'g'ri xulosalar chiqarish;
- g'oyalar va ma'lumotlarni sharhlash va birlashtirish;
- matn tarkibi, til, matn elementlarini o'rganish va baholash.

Bu omillar o'quvchilarning o'qish va yozish savodxonligini mustahkamlashda muhim omil bo'ladi.

PIRLS baholash dasturi o'qish maqsadlari va tushunish jarayonlarida o'quvchi ishtirokini ham o'rganadi. Biroq, ular bir-birlaridan yoki o'quvchilar yashaydigan va o'rganadigan matnlardan ajratilgan holda tahlil etilmaydi. O'qish savodxonligi insoniyatning qiziqishlari, ehtiyojlari va o'qish sabablari bilan bevosita bog'liq. Umumiy holda, bu sabablar shaxsiy qiziqish va zavq uchun o'qish, jamiyatda ishtirok etish uchun o'qish va bilim olish uchun o'qish kabi jihatlarni o'z ichiga oladi. Yosh kitobxonlar uchun bu jihatlarda muhim ahamiyatga ega.[4]

PIRLS baholash dasturi baholash tizimi maktabda va undan tashqarida yosh o'quvchilar tomonidan bajariladigan o'qishning aksariyat qismini hisobga olish uchun uchta asosiy maqsadga qaratilgan:

- adabiy tajriba orttirish uchun;
- yangi ma'lumotlardan xabardor bo'lish uchun;
- yangi bilimlardan foydalanish uchun.

Ushbu yoshda o'qishning har bir turi muhim, PIRLS baholash dasturi har bir maqsadni baholaydigan materialning teng nisbatini o'z ichiga oladi. O'qish savodxonligi butun umri

davomida o'qishni qo'llab-quvvatlaydigan xatti-harakatlar, jarayonlar va munosabatlarni qamrab oladigan turli xil matnlardan ma'no yarata olish qobiliyatidir. Bunday xatti-harakatlar va munosabat savodli jamiyatda shaxsning imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishga yordam beradi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Boshlang'ich sinflarda o'qish fanini o'qitishning asosiy maqsadi milliy hamda jahon adabiyotining nodir namunalarini o'qitish orqali o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurga oid bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilish va rivojlantirish, o'quvchilarni badiiy adabiyotga qiziqtirish, asarlarni o'rgatish jarayonida olam va inson tabiati, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlar, shuningdek, kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchilarning ma'naviyatini, dunyoqarashini kengaytirib, mustahkamlab borishdan iborat.

Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinflarida o'qish fani o'quvchilarni ongli, to'g'ri va ifodali o'qishga o'rgatish bilan birga ularda kitobxonlik va nutq madaniyatini hamda mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradi hamda o'quvchilarni har tomonlama rivojlantirishga xizmat qiladi. O'rganishlarimiz natijasida respublikamizda PIRLS baholash dasturiga o'tkazilgan maktablarning 4-sinf o'quvchilari o'qish savodxonligini oshirishda quyidagi muammolar mavjudligi aniqlandi:

- o'quvchilarning notanish matnga tayyor emasligi;
- axborot matnlari bilan ishlay olish texnikasining sustligi;
- o'quvchilarning badiiy matnlarda mantiqiylik asosida savollarga javob berishga qiynalishi;
- boshlang'ich sinf o'quvchilaridan sinf rahbari yoki maktab xodimidan boshqa notanish shaxs tomonidan olingan nazorat ishlari ta'lim sifatining tushishiga ta'sir ko'rsatishi;
- o'quvchilarda shoshqaloqlik, ikkilanish va chuqur hayajon tufayli savollarga javob bera olmaslik;
- o'qish savodxonligida tez va ifodali o'qishga e'tiborni kuchaytirish orqali izohli va ongli o'qish turiga e'tibor berilmaslik natijasida o'quvchilarda matnlarni o'qish va tushunish darajasi pasayganligi;
- o'qituvchi tomonidan nostandart vaziyatlarni tashkil etishda kreativ faoliyatni va o'quvchining motivatsiyasini oshirishda nazariy bilimlarning yetishmasligi;
- o'quvchilarda loyihalash va mustaqil ishlash qobiliyatining shakllanmaganligi.

Pedagogik tadqiqotlarda xalqaro baholash asosida yuqori reyting natijalariga erishish uchun quyidagi uslubiy tavsiyalarni taklif qilamiz:

PIRLS topshiriqlaridagi matnlarni boshlang'ich sinf o'quvchisining yoshi, qiziqishi va bilish darajasini tahlil qilish orqali boshlang'ich sinf mustaqil ishlar jarayonini quyidagi yondashuvlar asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq:

- rejalashtirish;
- amalga oshirish (sinab ko'rish);
- birgalikda tahlil;
- baholash;
- qayta ishlash (tatbiq etish).[5]

Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning savodxonlik darajalarini oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud. Biroq hozirgi vaqtda o'quv-tarbiya jarayonida o'quvchilarda o'qish va yozish savodxonliklari birgalikda olib borish, ko'nikma va malakalarini shakllantirish masalasiga dolzarb pedagogik muammo sifatida qaralmaydi, savodxonlik mazmunini tahlil qilish va ishlab chiqishga zamonaviy nuqtai nazardan yondashilmaydi, uning samarali metod, shakl hamda vositalaridan foydalanishga yetarlicha e'tibor berilmaydi. Bu boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning savodxonlik bilimlarini tashkil etish, amalga oshirish, nazorat qilish borasida qator pedagogik muammolar mavjudligini bildiradi.

Mazkur masalalarni ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan o'rganish, boshlang'ich ta'lim jarayonida o'quvchilarning savodxonlik darajasini oshirishga bo'lgan ehtiyojini e'tiborga olish va yetarli shart-sharoit yaratib berish zarur. Eng avvalo, quyidagi masalalarga tanqidiy yondashish lozim:

birinchidan, o'quvchilarning xalqaro dasturlar asosida o'qish savodxonligini oshirish ehtiyojining nazariy ta'lim bilan uzviyligi;

ikkinchidan, ta'lim jarayonida savodxonlik kursatkichlarini yaxshilashga oid muammolarning tizimli tadqiq etilmaganligi;

uchinchidan, o'qitiladigan mavzularda o'quvchilar baholash dasturlarining ilmiy-metodik jihatdan asoslanmaganligi;

to'rtinchidan, fanda o'quvchilar baholash dasturlari asosida tashkil etish yuzasidan amaliy-metodik tavsiya va xulosalarning ishlab chiqilmaganligi.

Baholash dasturlari o'quvchi faoliyatini to'g'ri yo'naltirishga qaratilgan bo'lib, avvalo, uning sog'ligini muhofaza qilishni, unda turfa fazilatlarini shakllantirish uchun amaliy yondashuv rejalarini tuzishni, bu rejalarda o'quvchini quvnoqlikka, topqirlikka undovchi vositalar jamlanishini, hozirjavoblikka, sermulo hazalikka, to'g'ri raqobat qila olishga yoki faraz qila olish qobiliyatini rivojlantirishga, ijodiy tafakkur qilish, tadbirkor bo'lishga undovchi qator nazariy va amaliy ishlar majmuasini barqaror etishni nazarda tutadi.

Baholash dasturlari boshlang'ich ta'lim tizimida keng o'rin olish va barqarorlashishi uchun istiqbol rejalarda quyidagilarga e'tibor berish lozimligi aniqlandi:

bajarilishi va tatbiq etilishi lozim bo'lgan ishlarni to'g'ri loyihalash, maqsad va vazifalarni belgilash;

- amaliy mashq va mashg'ulotlar tizimini yaratish;
- boshlang'ich sinflarda o'qitiladigan fanlar bo'yicha atamalar to'plamini tuzish;
- sinov mashg'ulotlari, test savollari tuzish;
- kompyuterni o'yinlar uchun dasturlar yaratish;
- sayr-sayohatlar o'tkazishning nazariy va amaliy yo'nalishini belgilash va dars rejalarini hozirlash;
- pedagogik texnologiyalarni o'zida aks ettiradigan o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalar yaratish;
- respublika ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy, milliy-ma'naviy xususiyatlariga mos ravishda boshlang'ich ta'limning amaliy asoslarini ishlab chiqish;
- jahon pedagogikasining boshlang'ich ta'lim sohasida mavjud tajribalarini o'rganish va ularni maktablarda joriy etish.

O'quvchilarga ta'lim-tarbiya berishda bir qancha muammolar mavjud. Imloviy xatolar, diqqatni bir joyga to'play olmaslik, matnni o'qib, so'zlay olmaslik, o'ta harakatchanlik, bir-ikki gapirganda tushunib yetmaslik, o'quv qurollarini toza tuta olmaslik, vazifani mustaqil bajara olmaslik, ko'chirma diktantlarda ham qiyinchilikka duch kelish. Bu sanab o'tilgan muammolarni hal etishda ham PIRLS, EGRA kabi baholash dasturlari juda samaralidir.[6]

Yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda she'rni o'rgatishda o'quvchilarga PIRLS tadqiqotini qo'llab ko'ramiz. Oila sharoitida bola qalbida kitobga nisbatan qiziqish va muhabbat tuyg'usini uyg'otish adabiyotga qiziqishdan boshlanadi. Buning uchun oiladagi kattalar: bobo yoki buvi, ota yoki ona, aka yoki opa muntazam ravishda har kuni kichkin-toylarga she'r, ertak yoki hikoya o'qib berishi lozim. Badiiy kitob bilan birgalikda o'tkazilgan damlar xuddi bayramdagidek hayajonli va quvonchli bo'lishiga erishish lozim. Bola bilan izchil ravishda har kuni shug'ullanib borilsagina kutilgan natijalarga erishiladi. Ovoz ohangi orqali bola she'rda tasvirlangan voqealarni tez tushunadi, qahramonlar kayfiyatini to'liq his qiladi.

9-topshiriq. "Zanjir" o'yini. O'qituvchi boshlab bir so'z aytadi. O'quvchilar bu so'z qish fasliga oid bo'lsa, shu so'zni topib aytadilar. So'z o'yini shu tarzda davom etadi.

1-variant: Qish, shamol, chana.

2-variant: _____

3-variant: _____

10 -topshiriq. Satrlarini tahlil qiling.

Savab bulut to'shagin

Qish to'zg'itar momiq par.

Yerga serbar oq namat

Yozilganday yaltirar.

11 -topshiriq. She'r matnini o'qiyotganingizda ko'z oldingizda nimalar namoyon bo'ladi?

12-topshiriq. "Mo'rkon", "serbar", "fayz", "surunkasi" so'zlarining ma'nosini izohlang.

13-topshiriq. Test

1. Mo'rkon so'zining ma'nosi nima?

A) o'ra

B) o'choq

D) tutun

14-topshiriq. Nuqtalar o'rniga mazmunga mos so'zni toping.

Vodiylarga berib,

Gullat bog'-u rog'ini.

O'ra kumush choyshabga O'lkamning har yog'ini.

A) oyni

B) toshni

D) fayz

XULOSA

Ta'lim sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan o'zbek ta'limini modernizatsiya qilish samaradorligi ko'p jihatdan har xil turdagi ta'lim natijalari bo'yicha tadqiqotlar doirasida olingan obyektiv ma'lumotlardan foydalanish darajasiga bog'liq. O'quvchi tafakkurini har tamonlama rivojlantirish, dunyoqarashini kengaytirishda PIRLS topshiriqlarini keng ko'lamda olib borish kerak. Chunki uning bilish, yangiliklarni qabul qilish doirasi keng, undan to'g'ri samarali foydalanish esa o'qituvchining vazifasidir. O'quvchining hissiy bilish, ma'lumot va ko'nikmalarni qabul qilishga keng imkoniyat yaratish uchun erkinlik berish, uni ijodiy ishlar qilishga, bajargan ishi samarasini ko'rib quvonishiga, yangi-yangi yutuqlarga yo'llash zarur.

O'qish savodxonligining asosi matnlar bilan to'liq ishlash uchun zarur bo'lgan o'qish qobiliyatlarini shakllantirishdir. Bu o'quvchi tomonidan kerakli ma'lumotlarni topish va tarqatish, matnning ma'lum qismi bo'yicha xulosalar chiqarish, asosiy belgilarning harakatlarini sharhlash, matn namunalari va matn tuzilishini dastlabki tahlil qilish bilan tasdiqlashda ko'zga tashlanadi.

PIRLS tadqiqotlarida darsda o'quvchilar tomonidan eng ko'p qo'llaniladigan o'qishning quyidagi ikki turi o'rganiladi:

Adabiy kitobxonlik malakasini egallash maqsadidagi o'qish.

Mazmunni tushunish va amalda foydalanish maqsadidagi o'qish.

Shundan kelib chiqqan holda o'quvchilarga ikki xil topshiriq berish maqsadga muvofiq:

Adabiy o'qish tajribasini o'rganish.

Axborotni ishlab chiqish va undan foydalanish.

PIRLS o'rganish monitoring bo'lganligi va uning asosiy vazifalaridan biri o'qish sifati dinamikasini o'rganish bo'lganligi sababli, o'qish uchun zarur shart bu har bir qismda matnlar va ularga berilgan topshiriqlarning bir qismini qayta ishlatishdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida yuridik ta'lim va fanni tubdan takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5987-son Farmoni: Toshkent sh., 2020 yil 29 aprel.

2. 2.Галиев Т.Т. Системный подход интенсификации учебного процесса. Дисс.докт. пед. наук .- Караганда, 2002. -150 с.
3. 3. Ta'lim sohasidagi yutuqlarini baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IEA) PIRLS 2021 baholash qamrov doirasi, Ina V.S. Mullis va Michael O. Martin, muharrirlar 2019,
4. 4.Smith, E. L., & Johnson, S. L. (2018). Teaching children to read: The teacher makes the difference. Routledge; Brown, P., Green, T. D., & Sawyer, W. W. (Eds.). (2020). The Cambridge handbook of the psychology of pre-school education. Cambridge University Press.
5. 5.Vygotsky, L. S. (1978). Mind in society: The development of higher psychological processes. Harvard University Press.
6. 6.Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). The " what" and " why" of goal pursuits: Human needs and the self-determination of behavior. Psychological Inquiry, 11(4), 227-268.Kress G. Multimodality: A Social Semiotic Approach to Contemporary Communication. – London: Routledge, 2010. – 236 p.
7. Luria A.R. The Making of Mind: A Personal Account of Soviet Psychology. – Cambridge: Harvard University Press, 1979. – 224 p.
8. New London Group. A Pedagogy of Multiliteracies: Designing Social Futures // Harvard Educational Review. – 1996. – Vol. 66, № 1. – P. 60–92.